

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIMY MARSHRUTINI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI

Xakimova Gulchehra Sayrixonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

e-mail: xakimovagulcehra557@gmail.com

Ustamova Nodira Maxmaraimovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Qodirova Aziza Nurillayevna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15665705>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun qilinayotgan ishlar, inklyuziv ta'lim va bu ta'lim to'g'risidagi qabul qilingan qonun va bu borada bugungi kundagi muammo va kamchiliklar, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limiy marshrutini tashkil etish bosqichlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, nogironligi bo'lgan bolalar, imkoniyati cheklangan, nuqson, kompleks, integratsiya, ta'lim marshruti.*

Kirish. Sharqning mashxur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. Inklyuziv ta'limni tashkil qilish jarayonining asosiy maqsadi barcha bolalarni ta'lim jarayoniga qamrab olishdir. Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi. Bola, u qanday holatda va qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar har doim kattalar yordamiga muhtojdir. Uni ajratish yoki alohida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan «anomal bolalar», «Imkoniyati cheklangan bola bolalar», «ko'r bolalar», «kar bolalar», «aqli zaif bolalar», «xarakat tayanch a'zolari falajlangan bolalar» va x. k. tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar imkoniyati cheklangan bolalarni huquqlarini poymol qiladi. Ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi.

Asosiy qisim. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning huquqlarini himoya qilish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning muhim usulidir. Shuning uchun ham tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik kerak, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan

yanglish fikr va munosabat mavjud. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularga yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim - tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdur. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim - tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni Imkoniyati cheklangan bolalarga Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamaları bilan ataladi. "Integratsiya" atamasini aniqlash maqsadida ushbu tushunchaning ta'rifini bergan. Unda "guruxlar integratsiyasiga", "guruxda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish" sifatida qaraladi shuningdek, jamoada faqatgina insonparvarlik munosabatlarni va mazkur guruxda ijobiy jamoatchilik fikrini yaratilishi bilan integratsiyani amalga tadbqiq etish mumkin deb ta'kidlanadi. Keyingi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarni barcha tengdoshlari qatori umumta'lim tizimida ta'lim olishiga jiddiy etibor berilmoqda va inklyuziv ta'lim matbuot axborot vositalari orqali ommaga keng targibot qilinmoqda. Bu borada ota-onalar ham farzandlarini umumta'lim tizimidagi integratsiyalashgan va inklyuziv gurux va sinflarda ta'lim - tarbiya olishiga o'z istaklarini bildirishmoqda. Nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarini anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi. Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi.

Ammo bu ta'lim tizimining xafli jihati juda ko'p ular sirasiga qo'yidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarni oldini oladi;

Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi xafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

- inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi ,mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;
- inklyuziv ta'lim barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin;
- bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi xamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi;
- uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi.

O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi qonun qabul qilindi. Bu qonun 2021-yil 16-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan bo'lib, bu qonunga muvofiq 2020-yil 15 oktabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" gi O'RQ-641 sonli qaror qabul qilingan bo'lib, bu hujjat ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan Brayl alifbesida ham nashrdan chiqarildi. Prezidentimiz tomonidan 2020- yil 13- oktabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Bu hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2020- yil 14 - oktabrdan kuchga kirgan. Hujjatga ko'ra 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha " Yo'l xaritasi" tuzib chiqiladi. Bu konsepsiya

2 bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, 1- bosqichda (2020-2022-yillar) inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratish, bu bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy, normativ bazani yaratish, jihozlash va zarur o'quv qurollari bilan maktablarni ta'minlash nazarda tutilgan. 2- bosqichda (2023-2025-yillar) inklyuziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etish, bu bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshirish kabilar. Inklyuziv ta'lim - bu maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma - xilligini hisobga olgan holda barcha tahsil oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlashdir. Ushbu qonun imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan teng ravishda ta'lim olish imkonini beradi. Inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma -bosqich ayrim maktablarda sinov tariqasida yo'lga qo'yiladi va ijobiy natija va tajribalar keyinchalik respublikaning boshqa hududlaridagi maktablarida tadbir etiladi. Mazkur qaror bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha 2020-2021-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, 2023-2025 yillarda inklyuziv ta'lim tizimi 51 foiz umumta'lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Ushbu ta'lim shakliga 40 foiz imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilinadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar musiqa, rassomchilik, tasviriy san'at, kulolchilik, jismoniy tarbiya va sport, kompyuter, tikuvchilik hamda boshqa maktabdan tashqari to'garaklar bilan qamrab olinadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Xulosa. Imkoniyati cheklangan bolalar maktablarida amalga oshirilayotgan ushbu amaliy qadamlar va kerakli zaruriy chora-tadbirlar natijasida ushbu tizimdagi mavjud muammolar o'z yechimini topishi hamda jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy-psixologik holatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olibib borilsa abatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayeva, S. (2020). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGI TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. Архив Научных Публикаций JSPI. Nabiyeva, G. A. (2021).
2. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIM-TARBIYA OLISHLARI. Scientific progress, 7(5). Zoxiriy, P. H. Z. Q. (2021). INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRON BOLLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH MUAMMOLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1). Zoxiriy, P. H. Z. Q. (2021).
3. INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRON BOLLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH MUAMMOLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1).
4. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

5. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni Toshkent sh., 2020-yil 15-oktabr, O'RQ-641-son.
6. " Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida "gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning qarori PQ-4860-sonli qaror (2020-yil 13-may)
7. Xakimova, Gulchehra. "ZAMONAVIY JAMIYATDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TURIZMINING ROLI." YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
8. Hakimova, Gulchehra, and Gulandom Raxmatova. "RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDAGI O'RNI HAMDA YANGI TEXNOGIYALARNI TA'LIM JARAYONLARI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI." Молодые ученые 3.18 (2025): 102-105.
9. Jabborov Maksud Bahriddinovich; Khakimova Gulchekhra Sayrikhonovnaa; Norova Dilobar Bakhromovna. "PROBLEMS OF TEACHING AND EDUCATING CHILDREN WITH DISABILITIES IN INCLUSIVE EDUCATION." EDUCATION SCIENCE AND INNOVATIVE IDEAS IN THE WOR. 2.1 (2025): 306-310.